

BO‘LAJAK JISMONIY TARBIYA O‘QITUVCHILARIDA KASBIY- AXLOQIY SIFATLARNI SHAKLLANTIRISHDA NAZARIY-ASOSIY YO‘NALISHLARI

Xoldorov Zoxid Abduvayitovich

Samarqand davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Zoxidjonah@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo‘ljak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy-axloqiy sifatlarini shakllantirish jarayonining nazariy-metodologik asoslari, sport kouchingi yondashuvining o‘rni va ahamiyati chuqur ilmiy tahlil qilingan. Shuningdek, axloqiy tarbiyaning tarkibiy elementlari, sport kouchining pedagogik texnologiyalari tizimi hamda amaliyotdagi samaradorligi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: sport kouchingi, kasbiy axloqiy sifatlar, pedagogik texnologiya, axloqiy tarbiya, jismoniy tarbiya, kasbiy sadoqat, motivatsiya.

THEORETICAL AND FUNDAMENTAL DIRECTIONS IN THE FORMATION OF PROFESSIONAL AND MORAL QUALITIES IN FUTURE PHYSICAL EDUCATION TEACHERS

Abstract. This article provides an in-depth scientific analysis of the theoretical and methodological foundations of the process of forming professional and moral qualities of future physical education teachers, as well as the role and significance of the sports coaching approach. It also examines the structural elements of moral education, the system of pedagogical technologies of sports coaching, and their effectiveness in practice.

Keywords: sports coaching, professional moral qualities, pedagogical technology, moral education, physical education, professional commitment, motivation.

ТЕОРЕТИКО-ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-НРАВСТВЕННЫХ КАЧЕСТВ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ

Аннотация. В данной статье проведён глубокий научный анализ теоретико-методологических основ процесса формирования профессионально-нравственных качеств будущих учителей физической культуры, а также раскрыты роль и значение подхода спортивного коучинга. Освещены структурные элементы нравственного воспитания, система педагогических технологий спортивного коучинга и их эффективность на практике.

Ключевые слова: спортивный коучинг, профессионально-нравственные качества, педагогическая технология, нравственное воспитание, физическая культура, профессиональная преданность, мотивация.

Kirish. Bugungi kunda jahon miqyosida ta'lim tizimining modernizatsiyasi, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish orqali shaxsiy va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, yuqori ma'naviy va axloqiy fazilatlarga ega, yetuk kasbiy salohiyat bilan bir qatorda sog'lom turmush tarzini, jismoniy madaniyatni rivojlantirishga qodir bo'lgan pedagoglarni tayyorlash zamonaviy ta'lim strategiyalarining ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni hamda 2019 yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmonlarida ham aynan pedagogik kadrlarning kasbiy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirishga alohida urg'u berilgan bo'lib, bunda ayniqsa jismoniy tarbiya va sport sohasi vakillarining shaxsiy namunasi asosida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, yoshlarning jismoniy va ma'naviy salohiyatini oshirish dolzarb vazifa etib belgilangan [6].

Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, jismoniy tarbiya o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida nafaqat ularning kasbiy ko'nikma va malakalarini, balki axloqiy fazilatlarini shakllantirish, ularni yuqori darajadagi ijtimoiy mas'uliyat, halollik, pedagogik burchga sadoqat, mehr-oqibatlilik kabi insonparvarlik tamoyillariga asoslangan tarzda rivojlantirish dolzarb ilmiy va amaliy muammolardan biri hisoblanadi.

So'nggi yillardagi ilmiy tadqiqotlar va xalqaro tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, aynan sport kouchingi (coaching) yondashuvi orqali nafaqat sportchilarning jismoniy ko'rsatkichlari, balki ularning shaxsiy, ijtimoiy va axloqiy fazilatlari ham samarali rivojlantirilmoqda [6, 18-b.].

Sport kouchi — bu murabbiylik va psixologik qo'llab-quvvatlash vositalari uyg'unligi asosida shaxsning individual salohiyatini ochib beruvchi, uni o'z kuchiga ishonch, iroda va mas'uliyat ruhida tarbiyalovchi yetakchidir. Demak, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini tayyorlashda sport kouchingi texnologiyalarini qo'llash ularning kasbiy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishda samarali mexanizm bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Tahlillarga ko'ra, ko'plab rivojlangan mamlakatlarda (Germaniya, AQSH, Buyuk Britaniya, Yaponiya) pedagogik tayyorlov jarayonida aynan sport kouchingi asosidagi yondashuv orqali bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarda ijtimoiy moslashuvchanlik, yuqori darajadagi kommunikativ madaniyat, psixologik bardoshlilik, sog'lom hayot tarziga nisbatan ongli munosabat, kasbiy-axloqiy mas'uliyat kabi muhim fazilatlar shakllantirilmoqda [6, 19-b.].

Shuningdek, O'zbekistonda ham jismoniy tarbiya va sport sohasida olib borilayotgan islohotlar, ayniqsa, sportning ommaviyligini ta'minlash, yoshlar orasida sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilish, ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bilan bir qatorda, pedagoglarning shaxsiy fazilatlari va

axloqiy tayyorgarligini yuksaltirish zaruratini yanada kuchaytirmoqda. Bu esa, sport kouchingi asosidagi texnologiyalarni pedagogik tayyorlov jarayoniga tatbiq etish, zamonaviy ilmiy-metodik yondashuvlarni shakllantirish va amaliyotga joriy etishni talab qiladi.

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy-axloqiy sifatlarini shakllantirish faqat nazariy bilimlarni egallash emas, balki ularning real amaliy faoliyati, sport mashg'ulotlari, musobaqalar jarayonida, o'z shaxsiy namunasi orqali shakllanadigan doimiy tarbiya jarayonidir. Shu bois, mazkur maqolada sport kouchingi yondashuvi asosida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish texnologiyalarining ilmiy asoslari, mazmun-mohiyati va amaliy yo'nalishlari tahlil qilinadi.

Asosiy qism

Zamonaviy pedagogik konsepsiyalarda o'qituvchining kasbiy faoliyati uning shaxsiy fazilatlarini bilan chambarchas bog'liq holda qaralmoqda. Ayniqsa, jismoniy tarbiya sohasida faoliyat yurituvchi pedagoglar uchun kasbiy-axloqiy sifatlar faqat shaxsiy yutuq emas, balki ta'lim-tarbiyaning samaradorligini belgilovchi muhim omildir.

Kasbiy-axloqiy sifatlar pedagogik faoliyat jarayonida o'qituvchining talabalarga, jamiyatga va o'z kasbiga nisbatan mas'uliyat, vijdonlilik, halollik, adolat, hamkorlik, insonparvarlik kabi jihatlarida namoyon bo'ladi [6, 15-17-b.].

Xususan, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy-axloqiy sifatlarini shakllantirish quyidagi omillar bilan uzviy bog'liqdir:

- Talaba shaxsida sog'lom turmush tarzini shakllantirish;
- Sport jarayonlarida halollik va adolat tamoyillariga rioya etish;
- Ijtimoiy va jamoaviy munosabatlarda mas'uliyat va sadoqat ko'rsatish;
- Ta'lim-tarbiyada mehr-muhabbat, sabr-toqat va hurmat asoslarini

shakllantirish [6, 18-b.].

Ilmiy tahlillarga ko'ra, pedagogik jarayonda axloqiy fazilatlarining yetishmasligi nafaqat o'quvchi va talabalar, balki butun jamoaning ijtimoiy-psixologik muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, zamonaviy ta'lim strategiyalarida axloqiy tarbiya pedagogik jarayonning ajralmas qismi sifatida e'tirof etilmoqda.

Jahon ta'lim tajribasida sport kouchingi yondashuvi so'nggi o'n yilliklarda nafaqat sportchilarning jismoniy salohiyatini oshirish, balki ularning axloqiy va psixologik salohiyatini rivojlantirishda ham samarali natija bergani isbotlangan. Tadqiqotda sport kouchingi quyidagicha talqin etiladi:

“Sport kouchingi — bu sport sohasida murabbiylik, yo'l-yo'riq ko'rsatish, shaxsiy va jamoaviy faoliyatda ijobiy fazilatlarini qaror toptirish, axloqiy va kasbiy salohiyatni rivojlantirish faoliyatidir” [6, 15-b.].

Koplab ilmiy tadqiqotlarni tahliliga ko'ra, sport kouchingi nafaqat sport jarayonida, balki pedagogik tayyorlov jarayonining barcha bosqichlarida samarali qo'llanishi mumkin. Xususan:

- Talabalar va o'qituvchilar o'rtasida sog'lom kommunikativ muhit yaratish;
- O'ziga va boshqalarga hurmat, ishonch va hamkorlikni shakllantirish;
- Psixologik mustahkamlik, iroda va mas'uliyatni rivojlantirish;
- Axloqiy-me'yoriy qadriyatlarni ongli o'zlashtirish;
- Jismoniy, intellektual va axloqiy salohiyatni uyg'un shakllantirish [6, 18-19-b.].

Ayniqsa, sport kouchlari faoliyatining asosini tashkil qiluvchi deontologik va akmeologik omillar pedagog shaxsining axloqiy, kasbiy va ijtimoiy salohiyatini yuksaltirishda muhim rol o'ynaydi. Deontologik yondashuv — bu o'qituvchi faoliyatida axloqiy tamoyillarga qat'iy rioya etish, o'z kasbiga sadoqat, halollik va adolat prinsiplarini amalda namoyon etish demakdir [6, 21-b.].

Tadqiqotda keltirilgan tavsiyalar asosida sport kouchingi yondashuvi asosida kasbiy-axloqiy sifatlarni shakllantirish quyidagi zamonaviy texnologiyalar majmuasini o'z ichiga oladi:

a) Didaktik ta'minot va metodik vositalar

- Axloqiy tarbiyani sport faoliyati bilan uyg'unlashtiruvchi maxsus mashg'ulotlar;
- Pedagogik takt va etika bo'yicha treninglar;
- “Sport mening hayotimda” mavzusidagi motivatsion suhbatlar va seminarlar [6, 88-90-b.].

b) Innovatsion pedagogik yondashuvlar

- Ko'uching texnologiyalarining sport va ta'lim jarayonlariga integratsiyasi;
- Psixologik tayyorgarlik va axloqiy barqarorlikni mustahkamlovchi mashg'ulotlar;
- Axloqiy muammolar va kasbiy vaziyatlarni tahlil qilish asosida muhokamalar.

c) Shaxsiy va jamoaviy rivojlanishga yo'naltirilgan faoliyatlar

- Talabalarning shaxsiy namunasi orqali axloqiy me'yorlarga amal qilish ko'nikmalarini shakllantirish;
- Sport musobaqalari va ijtimoiy loyihalar orqali axloqiy qadriyatlarni kuchaytirish;
- Liderlik, hamkorlik va ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantiruvchi interaktiv mashg'ulotlar.

Tadqiqot doirasida o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari ko'rsatishicha, sport kouchingi asosida kasbiy-axloqiy sifatlarni shakllantirish quyidagi ijobiy natijalarga erishishni ta'minlagan:

- Talabalarda axloqiy qadriyatlarga ongli munosabat shakllangan;
- Sport faoliyati va ta'lim jarayonida mas'uliyat va adolat tamoyillari mustahkamlangan;
- Jamoaviylik, ijtimoiy faollik va kasbiy sadoqat kuchaygan;

- O‘zini va boshqalarni hurmat qilish, halollik, vijdonlilik singari axloqiy fazilatlar namoyon bo‘lgan [6, 120-b.].

Tajriba jarayoniga jalb etilgan 541 nafar talaba va 137 nafar pedagog ishtirokida olib borilgan kuzatuv, suhbat, so‘rovnoma va test natijalari yuqoridagi xulosalarni ilmiy jihatdan asoslab bergan.

Xulosa

Tahlillar va amaliy tajribalar asosida xulosa qilish mumkinki, bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy-axloqiy sifatlarini shakllantirish zamonaviy pedagogik jarayonning integral tarkibiy qismi bo‘lib, u shaxsiy rivojlanish, ijtimoiy moslashuvchanlik va kasbiy kompetensiyalar tizimining muhim ko‘rsatkichidir. Ayniqsa, sport kouchingi yondashuvi asosida shakllantirilgan pedagogik texnologiyalar nafaqat o‘quvchilarda, balki pedagog shaxsining o‘zida yuqori darajadagi axloqiy-madaniy salohiyat va ijtimoiy mas’uliyatni qaror toptiradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, sport kouchingi modeli asosida olib boriladigan kasbiy-axloqiy tarbiya pedagogik jarayonni psixologik-pedagogik, deontologik va akmeologik jihatdan boyitadi. Bu esa, o‘qituvchining shaxsiy fazilatlarini, kasbiy sadoqatini, ijtimoiy-huquqiy ongini va kommunikativ madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Yakuniy natijalarga ko‘ra, sport kouchingi asosidagi texnologiyalar pedagogik tayyorlov tizimining quyidagi ilmiy-metodologik asoslariga tayangan holda samarali natija beradi:

- **Aksiologik yondashuv** — bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchisi shaxsida kasbiy axloqiy qadriyatlar tizimini shakllantirish, ularning amaliy faoliyatidagi aksini ta’minlash;

- **Deontologik yondashuv** — pedagogik faoliyatda axloqiy me’yor va qoidalarga qat’iy rioya etish, kasbiy burchga sadoqat tamoyilini mustahkamlash;

- **Psixologik-pedagogik yondashuv** — bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining shaxsiy psixologik barqarorligi va ijtimoiy-psixologik muhitga moslashuvchanligini ta’minlash;

- **Motivatsion yondashuv** — bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarida ijobiy ichki motivatsiyani shakllantirish, kasbiy va axloqiy o‘sishga intilishni kuchaytirish;

- **Innovatsion texnologiyalar asosida yondashuv** — sport kouchingi, interaktiv metodlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalar uyg‘unligini ta’minlash.

Shuningdek, tadqiqotimizda aniqlangan empirik ma’lumotlarga tayangan holda aytish mumkinki, sport kouchingi asosida kasbiy-axloqiy tarbiya o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijasida talabalar shaxsida quyidagi sifatlar barqaror shakllangan:

- Axloqiy mas’uliyat va vijdonlilik;
- Shaxsiy namunaviylik va ijtimoiy faollik;
- Sog‘lom turmush tarziga ongli yondashuv;
- Kommunikativ madaniyat va ijtimoiy muloqot ko‘nikmalari;
- Kasbiy sadoqat va liderlik salohiyati.

Shu bois, kelgusida jismoniy tarbiya o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida sport kouchingi asosidagi yondashuvni tizimli ravishda joriy etish, mazkur texnologiyaning nazariy-metodik asoslarini yanada takomillashtirish, kasbiy-axloqiy tarbiya mazmunini ilmiy asoslash hamda o'quv dasturlariga integratsiyalash dolzarb ilmiy-amaliy vazifa bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бўлажак жисмоний тарбия ўқитувчиларини спорт коучинги асосида касбий фаолиятга тайёрлаш технологиялари. Диссертация. Самарқанд, 2021. 169 б.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сон “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги фармони.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги ПФ-5847-сон “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси тўғрисида”ги фармони.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 21 январдаги ПФ-5924-сон “Ўзбекистон Республикасида жисмоний тарбия ва спортни янада такомиллаштириш ва оммалаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги фармони.
5. Руденский Е.В., Френсис Д. Теория и практика коучинга. Учебное пособие. – М.: Юрайт, 2020.
6. Ашурбеков Р.А. Коучинг как метод управления развитием туристических организаций. Автореф. дисс... канд. экон. наук. – М.: 2009.
7. Hawkins P., Smith N. Coaching, Mentoring and Organizational Consultancy: Supervision and Development. – UK: McGraw-Hill, 2013.